

мгновенно оплачивать регистрационные взносы и локальные услуги в обход традиционных банков-корреспондентов.

- Внедрение системы «Smart-Refund»: Автоматизированный возврат налогов (Tax Free) или бонусов для корпоративных клиентов через смарт-контракты при достижении определенных объемов бронирования.

- Токенизация выставочных площадей: Создание рынка цифровых прав на аренду площадей в ведущих экспоцентрах страны (Узэкспоцентр, САЕх), что позволит заблаговременно привлекать оборотный капитал для организации мероприятий.

- Стимулирование ГЧП через финтех: Разработка механизмов коллективного инвестирования в MICE-инфраструктуру регионов (Самарканд, Бухара) с использованием краудфандинговых платформ, регулируемых национальным законодательством<sup>322</sup>.

### Список литературы / References:

1. Paktiti, M. Smart contract applications in tourism / M. Paktiti, A. A. Economides // *International Journal of Technology Management & Sustainable Development*. – 2024. – Vol. 22, № 2. – P. 165–184. – DOI: 10.1386/tmsd..
2. IoT and Blockchain for Support for Smart Contracts Through TrM // *Sensors*. – 2025. – Vol. 25, № 16. – Art. 5001. – URL: <https://www.mdpi.com> (дата обращения: 04.03.2026).
3. MICE Tourism in Uzbekistan: Development, Challenges, and Future Prospects. *Statistical Review 2024–2025* // *Zenodo*. – 2025. – URL: <https://zenodo.org> (дата обращения: 04.03.2026).
4. *Statistical Report: Inbound Tourism Flows in the Republic of Uzbekistan for 2025* / National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. – Tashkent, 2026. – URL: <https://stat.uz> (дата обращения: 04.03.2026).
5. Park, S. Financial Development and Environmental Sustainability in Emerging Tourism Markets / S. Park, G. Li // *Journal of Sustainable Tourism*. – 2023).

## O'ZBEKISTONDA AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

**Qodirov Muhammad Furqat o'g'li,**

Ma'mun universiteti, "Biznesni boshqarish" yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonlik darajasi va byudjet-soliq tizimi samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlik OECD, Jahon banki va IMF ma'lumotlari asosida tahlil qilingan. Tadqiqotimizda noformal iqtisodiyot ko'rsatkichlari, soliq daromadlarining YaIMga nisbati va moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik nisbiy tahlili amalga oshirilgan. Natijalar moliyaviy savodxonlik darajasining oshishi soliq intizomini yaxshilash, iqtisodiyotning yashirin sektorini qisqartirish va fiskal barqarorlikni mustahkamlashga bevosita bog'liq ekanini ko'rsatdi.

**Kalit so'zlar:** moliyaviy savodxonlik, fiskal siyosat, davlat byudjeti, noformal iqtisodiyot, soliq intizomi, moliyaviy inklyuzivlik.

---

<sup>322</sup> Park, S. Financial Development and Environmental Sustainability in Emerging Tourism Markets / S. Park, G. Li // *Journal of Sustainable Tourism*. – 2023.

Globalashuv sharoitida moliyaviy munosabatlarning murakkablashuvi, raqamli to'lov tizimlarining kengayishi va kredit bozorlarining faol rivojlanishi aholining moliyaviy savodxonligini strategik ahamiyatga ega omilga aylantirdi. OECD ta'rifiga ko'ra, moliyaviy savodxonlik — bu shaxslarning moliyaviy jihatdan oqilona qarorlar qabul qilishi va moliyaviy farovonlikka erishishi uchun zarur bo'lgan xabardorlik, bilim, ko'nikma, munosabat va xulq-atvor yig'indisidir [1]. O'zbekiston Respublikasi aholisi 2026–yil boshiga kelib 38,3 million kishini tashkil qilmoqda va mamlakatimiz iqtisodiyoti so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atlarini namoyish etib, 2024–yilda YaIM real o'sishi 6,5 foizni tashkil etdi [3]. Biroq, iqtisodiy o'sish fonida bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, bevosita Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024–yilda noformal va yashirin iqtisodiyot hajmi 505 trillion so'mni tashkil etib, bu YaIMning 34,8 foiziga teng bo'lmoqda [4]. Soliq daromadlarining YaIMga nisbati 2023–yilda 11,53 foizni tashkil qilgan bo'lib, bu jahon mamlakatlarining o'rtacha ko'rsatkichi 17,3 foizdan sezilarli past [5].

Fuqarolarda moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi soliq to'lovchilarning byudjet majburiyatlarini anglab yetmasligiga, noformal faoliyatning kengayishiga va pirovard natijada fiskal barqarorlikning buzilishiga olib keladi. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi aholisining moliyaviy savodxonligi va byudjet-soliq tizimi samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish hamda ustuvor yo'nalishlarni aniqlash maqsadli tadqiqot yo'nalishi deb hisoblaymiz.

Tadqiqotda qiyosiy tahlil va ikkilamchi ma'lumotlar sintezi usullaridan foydalanildi. Axborot bazasini OECD/INFE MDH moliyaviy savodxonlik tadqiqoti (2021) [6], Jahon banki Global Findex ma'lumotlar bazasi [7], O'zbekiston Statistika agentligi YaIM va noformal iqtisodiyot ma'lumotlari [4], Jahon banki soliq tushumlari statistikasi [5], O'zbekiston 2026–yil Davlat byudjeti [8] kabi statistik-axborot to'plamlari tashkil etdi. Tahlilimiz quyidagi ko'rsatkich va tushunchalarning mantiqiy bog'liqlik zanjiriga asoslangan holda amalga oshirildi: moliyaviy savodxonlik → soliq intizomi → noformal iqtisodiyot ulushi → byudjet daromadlari → fiskal barqarorlik.

### 1-jadval

#### MDH mamlakatlarida moliyaviy savodxonlik ko'rsatkichlari

Mamlakat	Bilim (7 dan)	Xulq-atvor (9 dan)	Munosabat (5 dan)	Umumiy (21 dan)
Belarus	5,0	5,5	2,4	<b>12,9</b>
O'zbekiston	4,6	5,8	2,2	<b>12,6</b>
Qozog'iston	4,8	5,4	2,3	<b>12,5</b>
Rossiya	4,7	5,3	2,5	<b>12,5</b>
Qirg'iziston	4,4	4,9	2,3	<b>11,6</b>
Tojikiston	4,1	4,5	2,1	<b>10,7</b>
<b>MDH o'rtacha</b>	4,5	5,0	2,2	<b>11,7</b>

Manba: "OECD (2021) Financial Literacy Levels in the CIS" ma'lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi [6].

OECD/INFE tashkilotlari tomonidan 2021–yilda MDH mamlakatlari bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston aholisining moliyaviy savodxonlik umumiy bali 21 balldan 12,6 ni tashkil etib, bu maksimal mumkin bo'lgan ko'rsatkichning 60 foiziga teng bo'lib, bu ko'rsatkich MDH bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich 11,7 balldan ancha yuqori bo'lgan [6].

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston moliyaviy xulq-atvor mezonini bo‘yicha MDH mamlakatlari orasida eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan, biroq, moliyaviy bilim komponenti ko‘rsatkichlari MDH o‘rtachasidan faqat 0,1 ballga yuqori bo‘lib, bu fuqarolarning foiz stavkalari, inflyatsiya, diversifikatsiya kabi fundamental tushunchalarni yetarli darajada tushunmasligini ko‘rsatadi. Moliyaviy munosabat ko‘rsatkichi bo‘yicha ham Respublikamiz ko‘rsatkichi MDH o‘rtachasiga teng bo‘lib, bu aholi o‘rtasida uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishga munosabatning past darajasini ekanligini bildiradi.

O‘zbekiston Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2024–yilda mamlakatimizning yashirin va noformal (kuzatilmaydigan) iqtisodiyoti 505 trillion so‘mni (taxminan 40 milliard AQSh dollari) tashkil etgan. Ushbu miqdorning 383 trillion so‘mi noformal sektorga, 122 trillion so‘mi esa yashirin iqtisodiyotga tegishli bo‘lgan. Tarmoqlar kesimida eng yuqori noformal faoliyat qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik va baliqchilikda qayd etilgan (63,6 foiz), qurilishda 41,3 foiz, xizmatlar sohasida 40,1 foiz, sanoatda esa 8,9 foiz [4]ni tashkil etgan.

## 2–jadval

### 2024-yilda O‘zbekistonda noformal iqtisodiyotning tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti ko‘rsatkichlari

Iqtisodiyot tarmoqlari	Noformal ulush	Izoh
Qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik	63,6%	Eng yuqori
Qurilish	41,3%	Yuqori
Xizmatlar sohasi	40,1%	Yuqori
Sanoat	8,9%	Past
<b>Jami YaIMga nisbatan</b>	<b>34,8%</b>	<b>505 trln so‘m</b>

Manba: O‘zbekiston Statistika agentligi va UzDaily ma‘lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Mazkur yo‘nalishdagi yana bi muhim tendensiya shuki, 2017–yilda noformal iqtisodiyot ulushi 50 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024–yilga kelib 35 foizga tushgan [11] hamda ushbu ijobiy dinamika soliq ma‘muriyatchiligi raqamlashtirilishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan: jumladan, 2025–yil dekabr holatiga Soliq ilovasida 14,5 million foydalanuvchi ro‘yxatdan o‘tgan, shundan 13 milliondan ortiq foydalanuvchi ilova imkoniyatlaridan faol foydalanib, mamlakatda iqtisodiy munosabatlarning raqamlashtirishiga faol tarzda ta‘sur ko‘rsatmoqda [12]. Shuningdek, soliq turlari va stavkalarining optimallashtirilishi hamda kamaytirilishi ham mos ravishda yashirin iqtisodiyot hajmining kamayib borishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda, xususan, QQS stavkasining 2019–yildagi 20 foizdan 2023–yilga kelib 12 foizga bosqichma-bosqich kamaytirilishi, aylanmadan soliqning yo‘nalishlar bo‘yicha unifikallanishi va mintaqaviy imtiyozlar qo‘llanishi hamda soliqlar soni 13 tadan 9 taga qisqartirilishi, shular jumlasidandir [12].

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan tasdiqlangan 2026–yil uchun Davlat byudjetiga ko‘ra, konsolidatsiyalashgan byudjet daromadlari 515,3 trillion so‘m, xarajatlari esa 566,9 trillion so‘m etib belgilangan. Byudjet taqchilligi hajmi 59,9 trillion so‘m yoki YaIMga nisbatan 3 foiz miqdorida bo‘lishi rejalashtirilgan bo‘lib, 2026–yilda iqtisodiyotning 6,6 foizga o‘sishi, inflyatsiyaning 7 foizgacha pasayishi prognoz qilinmoqda [8]. Bunda, hukumatning byudjet taqvimiga rioya etishi, fiskal strategiyani shakllantirishi va 2025–2030 yillarga mo‘ljallangan Jamoat moliyasini boshqarish

strategiyasini qabul qilishi ijobiy omillar sifatida baholash mumkin [10]. Ushbu strategiya 16 ta aniq maqsadni o'z ichiga olgan bo'lib, o'rta muddatli byudjet rejalashtirishni joriy etish, davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va davlat qarzini makroiqtisodiy xavfsiz darajada saqlashga qaratilgan [9]. Soliq daromadlarining YaIMga nisbati 2023–yilda 11,53 foizni tashkil etib, bu jahondagi o'rtacha ko'rsatkichlardan 17,3 foizdan 5,77 foiz bandga past bo'lmoqda [5]. Bu esa kelgusida mamlakatimizda soliq bazasi kengaytirilishi lozimligini ko'rsatadi hamda noformal iqtisodiyotning 34,8 foizlik nisbiy ulushda bo'lishi soliq tushumlari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlardan orqada qolishlikning asosiy omillardan biridir.

Shunday qilib, yuqoridagi tahliliy ma'lumotlarimiz moliyaviy savodxonlik, soliq intizomi va fiskal barqarorlik o'rtasida tizimli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Bunda, aholining moliyaviy bilim komponentining nisbatan pastligi fuqarolarning soliq majburiyatlari va byudjet mexanizmlarini to'liq anglab yetmasligiga olib keladi hamda OECD tadqiqotlari moliyaviy bilim darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ixtiyoriy soliqqa tortilish va soliq majburiyatlarini bajarilishining sezilarli darajada yuqori bo'lishligini tasdiqlaydi

Mazkur tadqiqotimiz ikkilamchi ma'lumotlar tahlili asosida amalga oshirilgan bo'lib, birlamchi empirik tekshiruv (so'rovnoma, intervyu) o'tkazish natijalariga asoslanmaganligi bizning yuqoridagi tahliliy ishlanmalarimizning asosiy yetishmovchiligi bo'lishi mumkin. Shu sababli, kelgusi tadqiqotlarda bevosita O'zbekiston aholisi orasida moliyaviy savodxonlik va soliq intizomi o'rtasidagi korrelyatsiyani o'lchashga qaratilgan empirik kuzatuv va so'rovnoma ishlarini bajarilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tadqiqotimiz natijalari moliyaviy savodxonlik va byudjet-soliq tizimi samaradorligi o'rtasida mustahkam tizimli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. O'zbekistonda noformal iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi, soliq tushumlarining jahon o'rtachasidan past bo'lishi va moliyaviy bilim komponentining nisbatan pastligi holatlari o'zaro mantiqiy bog'langan, omil-natija ko'rinishidagi muammolardir. O'rganilgan muammoni yechish doirasida quyidagi amaliy takliflarimizni ishlab chiqdik:

1. Moliyaviy ta'limni umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalari dasturlariga tizimli kiritish. O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik faqat ko'nikmalar emas, balki nazariy bilimlar bo'yicha ham mustahkamlanishi lozim. Soliq tizimi, byudjet mexanizmlari va shaxsiy moliya boshqaruvi bo'yicha maxsus fanlar joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Raqamli moliyaviy ta'lim platformalarini kengaytirish. Markaziy bankning finlit.uz platformasi va Soliq qo'mitasining Soliq ilovasidagi 14,5 million foydalanuvchi bazasi asosida moliyaviy ta'lim kontentini integratsiya qilish soliq to'lovchilarning ixtiyoriy ma'sulligini oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

3. Byudjet shaffofligini oshirish. Ochiq byudjet portali orqali fuqarolarning byudjet jarayonlaridagi ishtiroki kengaytirilishi soliq to'lovchilarning mamlakat rivojiga qo'shadigan o'z hissalarini chuqurroq anglashiga va ixtiyoriy soliq intizomini kuchaytirishga yordam beradi. Ushbu takliflarning tizimli amalga oshirilishi O'zbekistonning strategik rivojlantirish maqsadlariga erishishga, soliq bazasini kengaytirishga va pirovardida mamlakat fiskal barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. OECD (2022). *OECD/INFE Toolkit for Measuring Financial Literacy and Financial Inclusion 2022*. OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/cbc4114f-en>
2. *Countrymeters* (2026). *Uzbekistan population*. <https://countrymeters.info/en/Uzbekistan> [murojaat sanasi: 01.03.2026].
3. *World Bank* (2025). *Uzbekistan Overview*. <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan/overview> [murojaat sanasi: 01.03.2026].
4. *UzDaily* (2025). *Uzbekistan's GDP amounted to US\$114.96 billion in 2024 // Statistics Agency under the President of the Republic of Uzbekistan*. <https://www.uzdaily.uz/en/uzbekistans-gdp-amounted-to-us11496-billion-in-2024/>
5. *TheGlobalEconomy.com* (2024). *Uzbekistan: Tax revenue, percent of GDP (World Bank data)*. [https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Tax\\_revenue/](https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/Tax_revenue/)
6. OECD (2021). *Financial Literacy Levels in the Commonwealth of Independent States*. OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/394dbe88-en>
7. Demirgüç-Kunt, A., Klapper, L., Singer, D., Ansar, S. (2022). *The Global Findex Database 2021*. Washington, DC: World Bank.
8. *Gazeta.uz* (2025). *O'zbekistonning 2026-yilga mo'ljallangan davlat budjeti loyihasi*. 05.12.2025. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/12/05/budget-2026/>
9. Banerjee, A., Anasbekov, S., Mamutova, K. (2025). *Enhancing Financial Inclusion in Uzbekistan*. SSRN. <https://doi.org/10.2139/ssrn.5743203>
10. Bhatti, M.I., Hamelin, N., Saidov, T. (2024). *What drives the hidden side of Uzbekistan's shadow economy? Post-Communist Economies*, 36(3), 281–297. <https://doi.org/10.1080/14631377.2023.2287757>

## **ALTERNATIV MOLIYA EKOTIZIMI ORQALI DUALISTIK TIZIM MODELINI TA'LIM METODLARI ASOSIDA TADQIQ QILISH**

**Nurmanova Maxfuza.Urozo**

*Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti Samarqand kampusi Dotsent v., b.*

**Annatsiya.** Ushbu maqolada alternativ moliya ekotizimi sharoitida dualistik tizim modelini ta'lim metodlari asosida tadqiq qilish masalalari yoritilgan. Tadqiqotda an'anaviy va raqamli moliya institutlari o'rtasidagi o'zaro integratsiya, ularning ta'lim jarayoniga ta'siri hamda dual ta'lim mexanizmlarining innovatsion rivojlanishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, *fintech*, *kraudfanding* va *blokcheyn* texnologiyalari asosida shakllanayotgan yangi moliyaviy muhitning pedagogik modellashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari alternativ moliya ekotizimi asosida dualistik ta'lim modelini joriy etish samaradorligini asoslab beradi.

**Kalit so'zlar.** *Alternativ moliya, dualistik tizim, moliya ekotizimi, fintech, kraudfanding, blokcheyn, ta'lim metodlari, innovatsion model.*

Zamonaviy iqtisodiy sharoitda alternativ moliya ekotizimi an'anaviy bank tizimiga muqobil ravishda rivojlanib, moliyaviy xizmatlar ko'lamini kengaytirmoqda. Ayniqsa, World Bank va International Monetary Fund hisobotlarida raqamli moliyaviy xizmatlar va *fintech* infratuzilmasining iqtisodiy o'sishga ta'siri alohida ta'kidlanadi. Dualistik tizim modeli esa nazariya va amaliyotni integratsiyalashgan holda o'qitish mexanizmini nazarda tutadi. Ushbu model alternativ moliya ekotizimi sharoitida yanada samarali qo'llanilishi mumkin, chunki u real moliyaviy platformalar va ta'lim jarayonini uyg'unlashtiradi.